



## **GLOBALLASHUV JARAYONIDA JAMIYATIMIZDA TARBIYA VA MEHNAT TARBIYASINING AHAMIYATI**

**Qodirova Feruza Mamurovna**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti  
Xorijiy tillarni o'rganish kafedrasida katta o'qituvchisi

**Norboyev Azizbek Inoyatjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
2-bosqich kursanti

### **ARTICLE INFO**

Qabul qilindi: 25- November 2023 yil  
Ma'qullandi: 28- November 2023 yil  
Nashr qilindi: 30-November 2023 yil

### **KEY WORDS**

*axloqiy fazilatlar, mehnat tarbiyasi,  
tarbiya, globallashuv jarayoni,  
ma'naviy va axloqiy qadriyatlar,  
ta'lim-tarbiya jarayoni.*

### **ABSTRACT**

*Mazkur maqolada globallashuv jarayonida mehnat tarbiyasi, uning ahamiyati, jamiyat tarbiyasidagi muhim jihatlar haqida so'z boradi. Globallashuv jarayonida jamiyatimizda mehnat tarbiyasida amalga oshiriladigan milliy tarbiya jarayoni haqida fikr yuritilgan.*

Xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo'lgan. Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qurslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo'ya ishlariga zinxor-bazinxor yo'l qo'ymaganlar. Bu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar. Sharqona odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma'lum.

Avvalambor, tarbiya deganda-muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomomlana o'stirish, ongi, xulq atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni hisoblanadi. Boshqacharoq qilib talqin etganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlana voyaga yetkazish unda ijtimoiy ong va xulq atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

### **ASOSIY QISM**

Bugungi globallashayotgan hayotimizda "mehnat tarbiyasi" tushunchasining tobora oqsoqlaganini, so'nggi yillarda jamiyatimizdagi ayrim yoshlari-mizning dunyoqarashida ushbu hislatlarning yilsayin "kichrayib", o'z o'rnini "virtual olam"ga bo'shatib berayotgani bejiz emas.

Tarixga nazar solsak, yillar davomida shakllangan ma'naviy, axloqiy qadriyatlar va insonlarning tabiiy huquqlari, sivilizatsiya jarayonlari natijasida fuqorolik jamiyati shakliga kelganini ko'ramiz.

Bu esa mamlakatda davlat jamiyat va fuqarolarning "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning tamoyillari va qadriyatlariga e'tiboran kuchaytirish, insonlarning

huquqiy-erkinliklarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan samarali tadbirlar amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Hayotimizdagi har qanday jabha bo'lishidan qat'i nazar u fan, sport, inovatsiya, madaniyat va shu kabi barcha sohalarining o'z tarmog'lari, xususiyatlariga mos bilim-ta'lim talab qiladi. Shuni aytmoq lozimki, ta'lim bilan tarbiya uzviy bog'liq hisoblanadi. Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar va fidoiy yoshlarni yetishtirib beradi.

Bunday kadrlarni yetishtirishday yuksak mas'uliyatli vazifani barcha o'quv dargohlaridagi o'qituvchi va murabbiylar o'z zimmasiga olganliklari azal-azaldan barchamizga ma'lum. Darhaqiqat, tarbiya bevosita oiladan boshlanadi.

Shu o'rinda aytish mumkinki, o'qituvchilarimizning bu yuksak mehnatlari be'etibor qolgani yo'q. Yurtboshimizning qilayotgan oqilona va adolatli siyosatini ushbu kasb egalari ham yanada ulug'laganligini ko'rishimiz mumkin. "O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnat, jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish ularning ijtimoiy va moddiy faravonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxorlik qiladi" (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 52-modda).

Odamzod bir necha million yillik rivojlanish tarixini bosib o'tgan bo'lsa, hech shubxasiz aytish mumkinki, aynan ongli ta'lim-tarbiya paydo bo'lgachgina "inson" sifatida shakllana boshlagan. Demak, yoshlarimizga ularning ongiga tarbiya shaxsiy va jamoaviy etika va estetika, gigiyena, atrof-muhitni asrash, kabi tushunchalarini chuqur va mustahkam o'rgatmog'imiz shart. Chunki, insoniyat to'plagan tajribalarini, an'ana va urf-odatlarini o'zidan keying avlodga meros qoldirib, o'z davomchilariga muayyan davr talablari darajasida ta'lim-tarbiya berib kelgan. Ta'lim-tarbiya bu joyda inson uchun qadrli bo'lgan boshqa hislatlar ham aks etadi.

Odamzod qaysi yoshda bo'lishidan qat'iy nazar, ularning rivojlanishida mehnat faoliyatining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, mehnat insonning ham jismoniy, ham ma'naviy kamol topishida muhim manba hisoblanadi. Mehnat orqali shaxsning axloqiy sifatleri tarkib topadi, ularda vatanparvarlik, mas'uliyat, intizomlilik, faollik ortadi.

Bulardan tashqari shaxsni kamolga yetishda uning barkamol inson bo'lib yetishishida nafosat tarbiyasi, axloq-odob tarbiyasi, ekologik tarbiya, jismoniy tarbiyalarning o'rni va roli beqiyosdir.

### **XULOSA**

Muxtasar qilib aytganda, tarbiya usullari birgalikda amalga oshirilsa biz yoshlar ertangi O'zbekiston bunyodkorlari avvalambor, sog'lom bo'lishimiz, sport bilan shug'ullanishimizni har kungi faoliyatga aylantirishimiz kerak. Chunki sog' tanda sog'lom aql bo'ladi. Agar biz sog'lom bo'lsakkina farzandlarimiz sog'lom bo'ladi.

Shunday ekan biz yoshlar, bo'lg'usi pedagoglar avvalambor o'zimiz har tomonlama yetuk, kamolga yetishishimiz, bilim va malakaga ega bo'lish uchun qunt bilan o'qishimiz darkor. Yoshlar ertangi kunning bunyodkorlari kelajak avlodni tarbiyalash,

o'qitishdek ma'suliyatli va sharaflil ishga qo'l urarkanmiz, hozirdanoq o'z bilimimizni oshirishimiz, berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz darkor.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi
2. Каримов И. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008.
3. Qodirova, F. M. (2022). OLIY HARBBIY TA'LIM MUASSASALARI KURANTLARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA KONSEPSIYASI VA UNING XUSUSIYATLARI. Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, 3(4), 1159–1163. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-4-1159-1163>
4. Mamurovna, Q. F. (2022). OLIY HARBBIY TA'LIM MUASSASALARIDA KURSANTLARINI MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHDA JORIY O'QUV DASTURLAR VA MATERIALLAR TAHLILI. Science and innovation, 1(B4), 71-75.
5. Qodirova Feruza Mamurovna. (2022). OLIY HARBBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA BERISH METODIKASINI TAKMORLASH. EURASIAN JOURNAL OF ATSADEMIS RESEARCH, 2(2), 160–163. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6105905>
6. Ma'murovna, Q. F. (2022). OLIY HARBBIY TA'LIM TA'LIM KURSANTLARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA BERISH METODIKASINI TAKMORLASH. Eurasian Journal of Atsademis Research, 2(2), 160-163.
7. Qodirova, F. M. (2022). Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarini ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash metodikasini amalga oshirish shakllari. Ssiense and Edutsation, 3(7), 197-199.
8. Mamurovna, Q. F. (2022). OLIY HARBBIY TA'LIM MUASSASALARIDA KURSANTLARINI MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHDA KURS OFITSERLARINI METODIKASINI OPTIMALLASHTIRISH. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(7), 116-118.
9. Mamurovna, Q. F. (2022). Implementation of the Methodology of Spiritual and Ethitsal Edutsation of the Sades of Higher Military Edutsational Institutions in Pratstitse. Journal of Pedagogitsal Inventions and Pratstitses, 10, 29-31.
10. Mamurovna, Q. F. (2022). The role and importance of the command in educating cadets on the basis of spiritual and moral values in higher military educational institutions. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 10, 32-34.
11. Muratovich M. R., Rajaboevich I. A. HARBBIY XIZMATCHILARNING KASBIY ONGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA UZLUKSIZ JARAYON SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 36. – №. 1. – C. 32-34.